

Iskandarxon



Iskandarxon ibn Jonibek Sulton

(?-1583-y. 22-iyun)

(1561-1583)

Shayboniylar xoni. Uning onasi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (Boburning tog'asi)ning qizi bo'lgan. Iskandarnon 15 yoshida Samarqand sug'diga qarashli Ofarinkent (Miyonkol) nohiyasida hokimlik qilgan, otasi favot etgach (1539-y.), Karmana hokimi bo'lgan. 1561 yil Iskandarxon o'g'li Abdullo sulton (Abdullaxon II) Buxoroni egallab amakisi Pirmuhammad (Balx hokimi) o'rniga otasi Iskandarxonni butun o'zbeklarning xoni(xonlar xoni) deb e'lon qilgan. Iskandarxon yoshligida jangari, irodali kishi bo'lgan esada – keyinroq taqvoga juda berilib ketgan. Shariat ahkomlariga to'la rioa qilgan, lochin oviga mohir bo'lgan, deyarli davlat ishlariga aralashmagan, shu sababli Nisoriy „*Muzakkiri ahbob*“ni bosh xonga emas, AbdullaxobII ga bag'ishlagan va Iskandar Sultonni faqat oliy hukmdor sifatida madh etgan. U taniqli tasavvuf olimi, Mahdumi A'zam Kosoniyning mudiri va shogirdi edi. Iskandarxonni **darvishlar podshohi (podshohi darvishon)** deb ham atashgan.

2023-10-31 23:10:31